



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

“Men g‘olib” va “Vatan qalqoni” ommaviy vatanparvarlik yugurish musobaqalari, “Yoshlar kuniga”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” va Xalqaro olimpiya qo‘mitasi kuniga bag‘ishlangan “Olympic Day” ommaviy yugurish musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga amaliy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Men g‘olib” va “Vatan qalqoni” ommaviy vatanparvarlik yugurish musobaqalari, “Yoshlar kuniga”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” va Xalqaro olimpiya qo‘mitasi kuniga bag‘ishlangan “Olympic Day” ommaviy yugurish musobaqalarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida” 2024-yil 6-maydagi 30-son bayonida belgilangan topshiriqlarni bajarish maqsadida **buyuraman:**

1. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2024-yil 16-maydagi 32-sonli bayonida “Men g‘olib” va “Vatan qalqoni” ommaviy vatanparvarlik yugurish musobaqalari, “Yoshlar kuniga”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” va Xalqaro olimpiya qo‘mitasi kuniga bag‘ishlangan “Olympic Day” ommaviy yugurish musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga amaliy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha 1,0 (bir) milliard so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratish masalasi yuzasidan jamg‘armaning tegishli qarori qabul qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I. Xoliqulov) O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq tegishli xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

3. 2024-yil 31-may kuni “Vatan qalqoni”, “Bolalar va yoshlar kunlari”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” hamda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi kuniga bag‘ishlangan “Olympic Day” ommaviy yugurish musobaqalari Respublikaning 16 ta (Andijon, Namangan, Farg‘ona, Nurafshon, Navoiy, Guliston, Jizzax, Samarqand, Termiz, Buxoro, Qarshi, Urganch, Nukus va Toshkent shaharlari

hamda Qorovulbozor va G'uzor tumanlari) tuman va shaharlarida o'tkazilishi inobatga olinsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda yugurish musobaqalarida ishtirok etish istagi yuqori bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini barcha xavfsizlik choralarini qo'llagan holda jalb qilinishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

5. Devonxona (X.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning hududiy boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosarlari T.Komilov hamda F.Boqiyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil " 27 " -may,
170-son



X. Umarova